

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA XORIJIY TILLARNI O'YINLAR ORQALI O'RGATISH

Abdurasulova Xumora Qodirjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti fakultetit 2

Maktabgacha va boshlang'ich talimda ingliz tili yo'nalishi

2–bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova.

Annatatsiya: Hozirgi kunda insonlardan o'z ona tilini bilishdan tashqari boshqa bir necha xil xorijiy tillarni bilish ham talab qilinmoqda. Bugungi kundagi tadqiqotlar chet tillarni o'rganish jarayonini erta yoshdan boshlash samaraliroq ekanligini ko'rsatmoqda. Bizning yurtimizda ham bu masalaga katta e'tibor qaratilmoqda. Oxirgi yillarda bu jarayon maktabgacha ta'limda o'z rivojini topmoqda. Bog'cha va mifik yoshidagi bolalarga xorijiy tillarni xususan ingliz tilini o'rganishda turli xil o'yinlardan foydalanish unumliroq hisoblanadi.

Kalit so'zlar: chet tili, didaktik o'yinlar, Rolli o'yinlarning uslubi, OBJECT o'yini, Taboo words (taqiqlangan so'zlar), Tennis o'yini.

Bog'cha va mifik yoshidagi bolalarning eng asosiy va sevimli mashg'uloti o'yin bo'lganligi tufayli bola o'zini o'rabi turgan atrof olamini ham o'yinlar orqali kashf etmoqda. Agar xorijiy tillarni ham turli xil qiziqarli o'yinlarga chambarchas holda o'rgatilsa bu til ko'nikmalarining o'zlashtirilishi samaradorligi bir necha barobarga oshadi. Turli xil qiziqarli o'yinlar bolalarni nafaqat jismoniy faolligini oshiradi. Shuningdek ruhiy tetikligini ham shakllantirishga katta yordam beradi. Bir qancha turdag'i o'yinlar shuningdek bolalarni o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga va shu bilan birgalikda atrofdagi insonlar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllanishiga ham ko'mak beradi. Shu sabablardan kelib chiqqan holda ota onalar tarbiyachi va murabbiylar bolalarga o'quvchilarga imkon qadar ko'proq o'yinlar orqali xorijiy tillarni o'rgatishni targ'ib qilish foydali hisoblanadi. Aynan o'yinlar orqali bolalar chuqurroq bilim olish bilan bir qatorda o'z iqtidorlarini ko'rsatishlarni shu bilan birgalikda yangi qiralarini kashf etishlari ham mumkin.

Ingliz va rus tillarini o'rgatishning samaralidorligini oshirish uchun "Rolli o'yinlar" dan foydalanish mumkin. Bu o'yinning afzallik tomonlari shundaki, bu vaziyatdan kelib chiqib bu o'yin nafaqat fan o'rganilishi uchun foydali shu bilan birga aqliy qobiliyatini shakllantirishga ham yordam beradi. Bu o'yinda mavzular tanlab olinib bolalar turli xil dialoglar tashkil qilishadi. Masalan: Xaridorning do'konlardagi sotuvchi bilan bo'lgan suhabatni yoki, bemor bilan shifokorning o'rtasidagi muloqotlar bularning barchasini ingliz tilida ham gapirib va ko'rsatib berishadi. Bu holatda

bolalardan tashkil topgan guruhlar o'rtasida fanga nisbatan qiziquvchanlik ham yuzaga keladi. Topshiriqni yaxshi bajargan o'quvchilar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Buning ustiga ingliz tili darslarini mazmunli o'tkazish uchun o'yinlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.

OBJECT bu o'yin o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Hammaga malumki, chet tillarini o'rganishning eng muhim qismi bu yangi so'zlarni yod olish o'quvchilarning xarakterlarini hisobga olsak. Har bir o'quvchi o'z usulida lug'at yotlaydi, shunga ishonchimiz komilki, o'yinlar orqali yangi so'zlarni yodlash hammaga mos keladi va bu jarayonni yengillashtiradi. OBJEKT o'yinimizda darsda sinf xonadagi 15ta buyum stol ustiga qo'yiladi va o'quvchilar kelib bu buyumlarni ko'zdan kechirishadi so'ng buyumlarni usti yopib qo'yiladi va o'quvchilar ko'rgan narsalarini ma'lum vaqt ichida doskaga inglizchani yozishlari kerak. Eng ko'p so'zlarni doskaga yozgan o'quvchi g'olib bo'ladi. Qolgan o'quvchilar ham xuddi shu tariqa o'yinni davom ettirib borishaveradilar.

Taboo words o'yini (taqiqlangan so'zlar) – bu juda qiziqarli o'yin hisoblanadi. Bu o'yin o'quvchilarga sinonim so'zlar va ularning tariflarini qo'llashda yordam beradi. Sinonim so'zlardan foydalanish nutqning ravonligini va so'zlashuvning chirolyi bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa ingliz tili fanida so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'ymaslik kerak, chunki ingliz tilidagi ko'plab bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlar gap mazmuniga ko'ra foydalaniladi. Aynan ushbu o'yin shu jihatda ehtiyojkor bo'lishga yordam beradi. Bunda ikki guruh tashkil qilinadi, ya'ni o'quvchilar qarama-qarshi holda o'tiradilar. Har bir jamoa o'z jamoasidan bir kishini ro'parasidagi stulga o'tirishi uchun tanlaydi bir o'quvchi esa o'quvchilar ortiga o'tib katta qog'ozda yozilgan so'zni ushbu turadi. O'rindiqda o'tirgan o'quvchilar bu so'zni ko'ra olmasligi kerak bo'ladi. Jamoaning o'rindiqda o'tirgan a'zosiga o'qituvchi ushlab turgan so'zni ayttirish uchun biroz vaqt beriladi.

Tennis o'yini bu o'yining maqsadi o'quvchilarning tezligini oshirishdir. Bu o'yin zanjir o'yiniga o'xshaydi va tanlagan mavzu doirasida bo'lib o'tadi. Bunda aytilgan so'zning so'nggi harfiga yangi so'z aytishi kerak. Masalan mavzuning nomi "Fruits" bo'lsa mavzudan chetlashmagan holda "Banana" so'zi bilan boshlansa ikkinchi ishtirokchi "Apple" deb davom ettiradi. Shu tariqa o'yin davom etadi. O'yin davomida to'xtab qolgan o'quvchi besh daqiqa davomida javob bera olmasa o'yindan chetlashtiriladi va qolgan o'quvchilar o'yinni shu tariqa davom etiraverishadi. O'yinni sinf bilan ya'ni ko'pchilik bilan o'ynash juda qiziqarli va maroqli bo'ladi. Bu o'yinni mavzuni o'zgartirish orqali ham o'ynash mumkin. Shu bilan birga, o'yinni tashkil etish jarayonida, ularning turli texnik vositalar bilan bog'lab o'tish ham qiziqish oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'yinlardan foydalanishda ularni bolalarning bilimiga va yoshiga qarab o'zgartirishimiz ya'ni osonlashtirish yoki murakkablashtirishimiz

mumkin. Ushbu yuqorida keltirilgan o'yinlarning maqsadi o'quvchilarning xotirasini kuchaytirish aqliy salohiyatini oshirish, tezkorlik, ziyraklik, yani so'zlarni oson esda saqlash va eng asosiysi darslarni mazmunli tashkil qilishdir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini asosan an'anaviy tarzda olib borilayotgan bo'lsada, ta'lim tizimining barcha bosqichlarda chet tillarni uzliksiz o'rganishni tashkil qilish shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyalari bilan ta'lim berishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni shu o'rganayotgan tillarning mutaxasisi bo'lishi va buning negizida ular shu tillarda bemalol so'zlashaolishlari maqsadga muvofiqdir. Zero, barchasi yoshlарimizning buyuk kelajagi yurtimiz ravnaqi uchundir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. http://www.futurelab.org.uk/resources/documents/project_t_reports/teaching_with_games/TWG_report.pdf, 2005.
2. <http://www.scientificpress.uz>.
3. Williams T Bicknell, A.E "The Journal of education", Volume 174(Issues 1–3), 1992.
4. Zubaydova Nilufar Nematillaeva. Learning English with phrases(2019).